

## O‘ZBEK TILIDA JARGON SO‘ZLARINING AHAMIYATI VA XILMA-XILLIGI

*Almardanova Jamila Safar qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti 1-kurs*

**Annotatsiya:** Biror tilni o‘rganishda, badiiy asarlarni mutoala qilishda va ayrim kishilar o‘rtasidagi aloqa jarayonida jargonlar e‘tiborni tortmay qolmaydi. O‘zbek tilida ham bunday so‘zlarga duch kelamiz. Xo‘sh, ularning tilimizda tutgan o‘rni qay darajada muhim va uning qo‘llanilishi haqida ushbu maqolada ma‘lumot olasiz.

**Kalit so‘zlar:** *Jargon, professional jargonlar.*

**Annotation:** When learning a language, reading works of art, and in the process of communication between certain people, slangs do not fail to attract attention. We also come across such words in the Uzbek language. Well, in this article you will learn about the importance of their role in our language and its use.

**Keywords:** *Jargon, professional jargons.*

**Аннотация:** При изучении языка, чтении произведений искусства, а также в процессе общения между отдельными людьми сленги не перестают привлекать к себе внимание. Подобные слова мы встречаем и в узбекском языке. Что ж, в этой статье вы узнаете о важности их роли в нашем языке и его использовании.

**Ключевые слова:** *Жаргон, профессиональные жаргоны.*

O‘zbek tili leksikasi shu tilida so‘zlashuvchi kishilar o‘rtasidagi kommunikatsiya jarayonida bir xilda qo‘llanmaydi. Ba‘zi so‘zlar barcha umumxalq vakillari tomonidan keng qo‘llanilsa, ayrimlari ma‘lum kasb-hunar vakillari va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagina ishlatiladi. Shuning uchun uning adabiy til normalaridan mustasno bo‘lgan bir qancha ko‘rinishlari mavjud va ular bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar sanaladi.

Jargon (fr. Jargon-safsata) - ishlatilish doirasi cheklangan bo‘lib, biror ijtimoiy guruhning o‘ziga xos muloqotida uchraydigan so‘z va atamalarni ifodalaydigan tushuncha. Kasbi, jamiyatdagi o‘rni, qiziqishi yoshiga ko‘ra alohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og‘zaki nutqida ishlatiladigan va ma‘nosini boshqalar ko‘p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar jargon deyiladi. Xususan, programmistlar jargoni, talabalar jargoni, mahbuslar jargoni, o‘g‘rilar jargoni, artistlar jargon va boshqalar. Shuningdek, ular har bir tabaqa vakillari o‘rtasida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan:

1) talabalar jargoni: yopmoq (sessiyani tugatmoq), vozdux (stipendiya), yaxlamoq (imtihondan qaytmoq), quloq (chaqimchi), chizmoq (qochmoq);

2) yoshlar jargoni: g’isht (xunuk) , sindirmoq (lol qilmoq), uxlatmoq (aldamoq), baks (dollar), muzlatmoq (harakatdan to’xtatmoq), tashlashmoq (tortishmoq), krutoy (ketvorgan);

3) harbiy xizmatchilar jargoni: dux (yangi kelgan askar), salyaga ( bir ikki oy xizmat qilagan askar), fazan ( xizmatning yarmini o’tagan askar) ded ( xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar), diskoteka ( oshxona naryadi).

**Professional jargonlar-** bu ma’lum bir professional muhitda maxsus tushunchalar va atamalarni ifodalash uchun ishlatiladigan lug’atni birlashtirish yoki qisqartirish orqali soddalashtirilgan so’zlar. Bunday so’zlar texnik atamalarning ko’pchilligini talaffuz qilish qiyin bo’lganligi yoki ularning ma’nolari zamonaviy rasmiy tilda yo’qligi sabab bo’lgan.

Jargonlar barqaror bo’lmaydi, tez-tez o’zgarib turadi. Turli sohalarda jargonlarning qo’llanilishi muhim ahamiyatga egadir. Ba’zi vaziyatlar maxfiylikni talab etadi. Ayniqsa, jinoyat olamida jargonlarning o’rni o’ziga xos va rang-barang. Misol uchun:

-”echkilar”-jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati bilan ochiq hamkorlik qiladigan mahkumlarning butun guruhi. Zonadagi eng jiddiy haqoratlardan biri;

-”grev”-ozodlikdan kelgan odam tomonidan qamoqxonadagi jinoyatchilarga noqonuniy ravishda yuborilgan oziq-ovqat va pul;

-”lehimlash”- davlatga tegishli mahsulotlar;

-”shmon”- qidiruv;

-”blatnoy”- eng yuqori maqomli guruhdan bo’lgan professional,hurmatli jinoyatchi. “Tushunchalarga” amal qiladi, qamoqxonona qonunini tan oladi, “toza” o’tmishga ega;

-”dushnyak”- ayniqsa chidab bo’lmas sharoitlar;

-”kesish”- muddatni qisqartirish;

-”delyuga”- jinoiy huquqbuzarlik;

-”ksiva”- passport yoki shaxsiy guvohnoma;

-”quvur”- mobil telefon.

Bunday jargonlarni o’rganish qiziqarli va o’ziga xos. Uni o’rganishga ilmiy xarakterdagi ko’plab asarlar bag’ishlanganligi bejiz emas. Badiiy adabiyotda jargonlar biror qahramonning xarakteri,tabiatini ochib berish uchun xizmat qiladi. Jargon so’zlarga inson ma’naviyatidagi salbiy nuqson sifatida ham qaraladi.

Jargonlar qadimdan tilimizda mavjud bo’lgan. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

-”oftobi olam”- podsho;

-”husni mutlak”- xudo;

-”ne’mati Jannat”- yor,mahbuba;

-”malhuz emas”- mulohaza qilingan emas;

-”tanzil”- foyda.

Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shu jarayondagi insonlar manfaatiga xizmat qiladi. Bunday jargonlarni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralastirmaslik kerak. Jargonlar qaysi ijtimoiy guruh orasida yuzaga kelgan bo’lsa, deyarli faqat shu guruh vakillari uchun tushunarli bo’ladi va vaziyat taqozosiga ko’ra boshqalardan sir tutiladi. Ayniqsa, jargonlar turli millat vakillari o’rtasida, chegara hududlarda ko’p uchraydi.

O’zbek tilining izohli lug’atida jargon quyidagicha izohlanadi:”Jargon[fr. jargone- ma’lum bir guruhga oid so’z ]. Biron ijtimoiy yoki professional guruhga xos faqat ularning o’zi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so’z va iboralar jargonlardir”[1,74]. Jargonlar o’ziga xos sun’iy,shartli so’zlardir. Jargonlarning eng xarakterli belgisi o’zaro so’zlashuv jarayonida tinglovchini o’zidan past o’rinda ekanligini ta’kidlash yoki alqash mazmunini ifodalashdir. Ular o’zbek tilidagi lug’atlarga deyarli kiritilmagan. Ular asosan jonli nutqda “yashaydi” .

Jargonlar juda xilma-xildir. Rus, ingliz va boshqa tillarni o’rganish davomida ham ularni ko’plab uchratish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayfullayeva R.R.,Mengliyev B.R.,Boqiyeva G.H.,Qurbonova M.M.,Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q.Hozirgi o’zbek adabiy tili Toshkent – “Fan va texnologiya”-2010.
2. B.To’ychiboyev. O’zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. – T.:”O’qituvchi”, 1996, 7-b.
3. O’zbek tilining izohli lug’ati. 2 jild. – T., O’zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2020. – B. 671. ]
4. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Timurid princess The image of time and spirit in the image of Saraymulkhanim. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 84–87.
5. Nigora Jo’ranazarova Qurbonboy qizi. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARINING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI. *PEDAGOGS*, 46(1), 57–62.
6. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. *PEDAGOGS*, 46(1), 67–69.
7. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Temuriy malikalarning fojaviy taqdirlari tasviri. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 1291–1298.
8. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O’ZBEK TILIDA BA’ZI OSMON JISMLARINING O’ZLASHMA SO’ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. *PEDAGOGS*, 56(2), 31–34.

9. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 2(1), 301–304.
10. Sayfullayev Najibullo, Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
11. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY’S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(6), 80–83.
12. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
13. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).
14. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO‘YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO‘Z TARKIBI. *IMRAS*, 6(7), 565–569.
15. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Axmedova Dilbar Abdukarimovna. (2023). Ta’lim jarayonida o‘z - o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash, shaxsiy pedagogik tajriba to‘plash tizimi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 154–162.
16. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
17. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education*. 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.